



Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi

**Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning
mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan
topshiriqlar bilan ishlash ko'nikmasini
rivojlantirish**

Fayzulloyeva Dilrabo Rahmonovna Buxoro shahar 29-IDUM
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Fikrlash bu - qiyin jarayon. Shuning uchun bu ish bilan kamchilik shug'ullanadi



Genri Ford

- Fikrlash – shaxs bilish faoliyati jarayoni bo‘lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Fikrlash insonga haqiqat hodisalari o‘rtasidagi aloqalarni topish imkonini beradi, lekin aniqlangan bog‘liqlik haqiqatdan vaziyatning to‘liq holatini aks ettirishi uchun u ob’ektiv, to‘g‘ri yoki boshqacha aytganda, mantiqqa tayangan, mantiq qonunlariga mos bo‘lishi kerak. Mantiqiy fikrlash – fikrlashning oliy pog‘onalaridan biri bo‘lib, izchillik, ketma-ketlik asosida fikrlarning bog‘lanishini bildiradi va shaxs ijodiy faolligining muhim qirrasini o‘zida aks ettiradi.



Mantiq o'zi nima?

- Mantiq fani insonning zehnini xatolardan saqlovchi qonun-qoidalar jamlanmasi hisoblanadi. “Mantiq” so’zi lug’atda yunoncha “logika” so’zining arabcha tarjimasidir. “Logikos”-“so’z, aql” va “aql yuritish” ma’nolarini beradigan “logos” so’zi bilan aloqador bo’lib, so’z va aql ma’nolarini o’z ichiga qamrab olgan tushunchadir.

■ Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish mezonlari:

- Tafakkurning mustaqilligi;
- O'quv materialini o'zlashtirishning tezligi va mustahkamligi;
- Standart bo'Imagan vazifalarni hal qilishda zehn (fikrlashning) tezligi;
- O'rganib chiqilayotgan vaziyat mazmuniga chuqur kirib borish (muhim bo'lgan nazariyani muhim bo'Imagan nazariyadan ajrata bilish);
- Fikrlashdagi tanqidiylik. Mantiqiy fikrlashning rivojlanganlik darajasini belgilovchi mezonlar:
- Mantiqiy fikrlashga nisbatan motivatsiyani qaror topganligi;
- Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarining shakllanganligi;
- Mantiqiy fikrlash ko'nigmalarining rivojlanganligi;
- * Amaliy mantiqiy fikrlash jarayonini tashkil etish;
- * Ixtisoslashgan (pedagogik) mantiqiy fikrlashning rivojlanganligi



MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

- mantiqiy o'yinlar, topishmoqlar, kitob o'qish,
- masalalar va boshqotirmalarni yechish va bajarish,
- shaxmat o'ynash, tanqidiy fikrlashni o'rGANISH,
- munozaralarda ishtirok etish.




- Mantiqiy fikrlash – inson tomonidan ko’rib, eshitib, bilib, his qilib va anglanib turgan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur etilishini anglatuvchi tushuncha.
- Mantiq — to’g’ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan. Mantiq o’zining shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Mantiqga oid dastlabki fikrlar Qadimiy Sharq mamlakatlarida, xususan, Hindiston, Xitoyda vujudga keldi. Qadimda mantiq falsafa tarkibida bo’lgan
- Bolada mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun avval uni kreativ, kritik fikrlash qobiliyatlarini, o’rtoqlari bilan muloqotga kirisha olish, hamkorlikda ishlash xususiyatlarini shakllantirib olish kerak.



- ❖ boshqalarning fikrini tinglashni o’rganish;
- ❖ o’z ijobjiy obrazining shakllantirishga erishish;
- ❖ o’z fikr va his-tuyg’ularini ifodalay olish amaliyoti;
- ❖ taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;
- ❖ o’z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;
- ❖ katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyotining rivojlanishi ham bolaning mantiqiy fikrlashida katta ahamiyatga ega.

DARSDA LOTAREYA O'YNAMANG!

- Darsda bolalarni musobaqalashtirishda me'yordan ortiqcha foydalanmang!
- Oldinroq ishlab bo'lgan o'quvchi (**tavakkalchini**) rag'batlantirmang!
- Topshiriqni bajargan o'quvchining uni **QANDAY** ishlagani so'rang!
- Topshiriqni berishdan maqsad uning qay tartibda ishlashini tushuntirish emas, ishlangan topshiriq sonini oshirish bo'lmasin!
- Doimo har bir topshiriqdan keyin - Qanday?
- - Nima uchun? -Qay tartibda?
- -Nima uchun to'g'ri?
- -Nima uchun xato?
- kabi savollarni berish va o'quvchidan javob olish kerak!
- Topshiriqni tushintirish uchun vaqtni ayamang!



HAR BIR TOPSHIRIQLAGI JAVOB QANDAY KELIB CHIQQANINI O'QUVCHI ANIQ BILSIN!

- Mantiqiy topshiriqlarda to'g'ri javob "*mos kelgani uchun to'g'ri*" bo'lmaydi. Topshiriqni ishlashda hech qanday formula, teorema yoki qoidadan foydalanib bo'lmasa ham, undagi qaysi javob to'g'ri ekanini, qaysilari noto'g'ri ekanini, noto'g'ri javob nima sababli noto'g'ri ekanini aniq ko'rsatish mumkin, kerak va shart!



O'QUVCHI TOPSHIRIQ YECHIMINI TUSHUNTIRSIN



- O'quvchining topshiriqni ishlay olishining, uni tushunganining eng aniq isboti – o'quvchi topshiriq yechimini tushuntira olishida!
- Har bir misolni iloji boricha ko'proq usulda yechishga harakat qiling, iloji boricha o'quvchining har bir usulda javobga qanday yetib borganini qadam-baqadam tushuntira olishiga erishing, noto'g'ri yechimning nima uchun noto'g'riliini ham aniq ayta olsin!

Unutmang!

Ta'lim - bu shunchaki bilimlarni o'rGANISH emas,
balki odamlarni fikrlashga o'rgatishdir.

Albert Eynshteyn



FARZANDINING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH UCHUN OTA-ONALARGA TAVSIYALAR

Bolangiz bilan ko`proq suhbat qiling.

- Oiladagi mumkin bo`lgan muammolarni hal qilishda,farzandingiz fikrini so'rang. Agarda fikri tog'ri bo'lmasa , koyimang, chunki u bolalarcha fikrlaydi.
- Biror joyga bormoqchi bo'lsangiz, farzandingiz fikrini so'rang va imkon darajasida inobatga oling.
- Uyga qandaydir jihoz yoki o`zingizga kiyim olmoqchi bo'lsangiz, fikrini so'rang

1 DAQIQA METODI

1-daqiqa metodining tartibi: o'quvchilarga bir daqiqada bajarish uchun topshiriq beriladi. O'quvchi berilgan mantiqiy topshiriqni bajarib bo'lganidan so'ng, 1 daqiqa vaqt davomida berilgan mantiqiy topshiriq mazmuniga doir 10 ta ma'lumot yozing.



1 DAQIQA METODI

Masalan. 3-sinf matematika darsligi 2-qism
24-sahifadagi mantiqiy topshiriq.

Qandolat fabrikasida 24 ta tayyor tort bor. Har bir tortga beze yoki muzqaymoq qo'shilgan. Bezeli tortlar 15 ta, muzqaymoqli tortlar 19 ta bo'lsa,
ham beze, ham muzqaymoq qo'shilgan tortlar nechta?



$$(15+19)-24=10$$

Ma`lumotlar: 1) tort bu shirinlik
2) Tortlar turli shakllarda bo'ladi
3)



1-DAQIQA METODI


O'QUVCHIGA NIMA BERADI:

- O'quvchilarni tezkor va kreativ fikrlashga o'rgatadi;
- muammoni tez va mantiqli hal qilish ko'nikmasini rivojlantiradi;
- topqirlik jihatlarini shakllantiradi;
- yakka tartibda ishlanganda fikrini va diqqatini jamlab olishga, tezlikda qaror qabul qilishga undaydi;
- guruhda ishlaganda esa o'zaro bahsga kirishish va jamoa bo'lib ishlash madaniyatini, o'z fikrini bildira olish ko'nikmasini shakllantiradi.


O'QITUVCHIGA NIMA BERADI:

- O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga va tezkorlikka o'rgatishda yordam beradi;
- darsni qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi;
- fanga doir mavzularda qo'llash orqali mavzuni mustahkamlab olishga erishiladi;
- o'quvchilarning javoblariga tayanib ularning yashirin qirralari va o'ziga xosliklarini kashf etishiga hamda ularni qiziqishlari bo'yicha yo'naltirishga yordam beradi.


“Aralash harflar” metodi



O'quvchilarning fanga qiziqishini va diqqatini jamlay olishga yordam beradi.



Turli harflardan tuzilgan, ammo ma'no anglatmaydigan harflar birikmasini hosil qilasiz va shu harflar birikmasining orasida mavzuga oid kalit so'zni yozib qo'yasiz. O'quvchilar diqqatini jamlagan holda kalit so'zni topa olishi kerak bo'ladi.




Ushbu metoddan unumli foydalananib, barcha fanga moslashtirish mumkin

“Aralash harflar” metodi

3-sinfda ko‘p xonali sonlarni o‘tishga doir

(yashiringan sonni topib o‘qing va uni yozing)

geatrikkihufjikjuhmillionmnbgvghy,
opsbeshnagtlisyttashvyuzlokiyetmishkjgfbir




“Aralash harflar” metodi

Ikki million besh yuz yetmish bir
2 000 571



“Yulduzli misol” metodi



Bu metodda biror
bir misolni
tanlaysiz



Misoldagi ba’zi
raqamni o’chirib
o’rniga yulduzcha
qo’yasiz



Bolajonlar yulduzcha
o’rnidagi raqamni
to’g’ri topib, o’rniga
qo’yib misolni yozib
bajarishlari kerak



Misolning qiyinlik
darajasiga qarab
vaqt beriladi

$$485*7 + 3*419 = 829*6$$


$$3*78* + 4*6*70 = 80955$$

—
—
—
 $48567 + \text{*****} = 97602$

$$68476 - 4 * 4 * 7 = * 4 * 89$$

“DOMINO” o’tkazish tartibi

- 1) O‘qituvchi fan va mavzuga doir topshiriqlarni tarqatmalarga yozadi va o‘quvchilarga tarqatadi
- 2) 1-tarqatmada faqat savol yoziladi va uni o‘qituvchi doskaning yuqorisiga ilib qo‘yadi
- 3) O‘quvchilarning qo‘lidagi tarqatmalarda esa bitta javob va davomida bitta savol yozilgan bo‘ladi.
- 4) O‘quvchilar doskadagi savolni o‘qiydilar va kimning qo‘lidagi tarqatmada savolning javobi berilgan bo‘lsa,darhol chiqib doskadagi savolning ostiga yopishtiradi. Bu javobning davomida yozilgan savolni o‘qiysi va qolgan o‘quvchilardan qaysi birida javobi bo‘lsa,shu o‘quvchi chiqib javobini yopishtiradi va davomidagi savolni o‘qiysi.



Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga doir topshiriqlar

- Sinfda 32 nafar o'quvchi bor. Ulardan 16 nafari velosiped hayday oladi, 18 nafari suza oladi va 5 nafari bu sport turlarining ikkalasini ham bajara olmaydi. Necha nafar o'quvchi ikkala sport turini ham qila oladi?



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga oson va qulay usulda
o'rgatishga harakat qilish lozim

- **16+18+5=39**
- **39-32=7**

- Javob: 7 nafar o'quvchi ikkala sport
turi bilan shug'ullanadi

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga doir topshiriqlar

- Murodjon 2024-202-24 misolini daftariga ko'chirayotganida, 2 lardan birining o'rnini noto'g'ri yozdi va natijada 1808 ni hosil qildi. Qaysi 2 ning o'rni almashib qolgan?
- $2024 - 202 - 24 =$



BOG'BON VA NIHOL

(Rivoyat)

- Qadim zamonda bir bog'bon bo'lgan ekan. Ularning yolg'iz farzandi bo'lib, juda tantiq ekan. Bog'bon bolasiga tanbeh bersa, xotini o'rtaga tushib: "Qo'yavering, katta bo'lsa, esi kirib qoladi", - der ekan.
- Bog'bon xotinining gapi xato ekanini tushuntirish uchun shunday yo'l tutibdi: bog'ga ikkita bir xil nihol ekib, o'g'it solib parvarishlabdi. Lekin nihollardan birining ortiqcha shoxlarini kesibdi, ikkinchisiga esa umuman tegmabdi.
- Oradan uch yil o'tibdi, nihollar daraxtga aylanib, meva beradigan payti kelibdi. Shoxlari kesib turilgan nihol baland va chiroyli daraxt bo'lib, mevalari ham ko'p ekan. Qaychi tegmagan niholning shoxlari esa har tomonga tarvaqaylab, qiyshiq bir daraxt bo'libdi. Bir-ikki mevasi esa maydaligidan ko'zga tashlanmas ekan.
- Bog'bon xotinini chaqirib, daraxtlarni ko'rsatibdi va tushuntiribdi: "Mana bu daraxtning ortiqcha shoxlarini kesib turganim uchun butun kuchi asosiy shoxlarga borib, serhosil bo'ldi. Buni esa o'z holiga tashlab qo'yganim uchun meva bermaydigan, foydasiz daraxtga aylandi. Uning ortiqcha shoxlarini endi kesgan bilan foydasi kam. To'g'ri parvarishni niholligida qilish kerak edi".

- Nihol va bolaning qanday o'xshashligi bor? Fikringizni yozing

■

- Maqolni davom ettiring

- Ona bilan bola,

- Onaning ko'ngli

bolada,

- Rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz? Fikringizni yozing

■



“MA’LUMOTLAR YO’LAGI” TA’LIMIY O’YINI

Bunda bajarilayotgan masalani turli usulda bosqichma-bosqich, tanqidiy va tahliliy holda o’rganish imkoniyatini beradi. Berilgan topshiriqlarni bajarib, matn tuzish malakalarini rivojlantiradi. Bu metodni kichik guruhlarda qo’llasa ,juda samarali bo’ladi.

- 1) O’qituvchi tomonidan mavzu uchun kalit so’z tanlanadi.
- 2) Guruhlarga alohida shartlar beriladi

Masalan:3-sinf matematika fani II qism 51-mavzudagi yondosh mavzu

“Qurilishga oid kasblar” (kalit so’z)

I guruhi: Kasblar haqida ma’lumot aytadi va doskadagi o’z yo’lagiga yozadi

II guruhi: Qurilishga oid kasblarning afzalligini aytadi va doskadagi o’z yo’lagiga yozadi

III guruhi: Qurilishga oid kasb egalarining ish qurollari haqida aytadi va doskadagi o’z yo’lagiga yozadi.

“Quvnoq sonlar” ta’limiy o‘yini

Raqam	Juft	Toq	Qo`shnilari	Tarkibi
9	-	+	8 va 10	4+5, 6+3, 7+2, 8+1

- Bu o‘yin shartlarini sinf yoshiga qarab murakkablashtirish mumkin

“Quvnoq harflar”

(3-sinf ona tili fanidan “Nutq” mavzusi)

NUTQ	Alifbodagi tartibi	Ism	Joy nomi	Hayvon (qush,hasha rot) nomi	O'simlik(me va,sabzavot) nomi	Matematik atama	Musiqiy atama
N	13	Nasiba	Namangan	Ninachi	Na'matak	nol	nota
U	20	Umid	Urganch	Ukki	Uzum	Ulush	
T							
Q							

“So’zlovchi soat”

Stol ustida 1 dan 12 gacha va 5,10,15,20,25,30,35,40,45,50,55,60 yozilgan kartochkalar teskari holda qo’yiladi.O’quvchilar birma-bir kartochka tanlab oladilar. Qaysi raqam yozilgan bo’lsa, shunga doir ma’lumot aytadilar. Va kartochkani doskadagi soat rasmi chizilgan ko’rgazmaga yopishtiradilar.

Masalan:

1-bir yil 365 yoki 366 kun

6- oltinchi sayyora Saturn

2-tabiat 2 ga bo’linadi, jonli va jonsiz

7-yetti o’lchab, bir kes

3-xaritalar 3 turga bo’linadi

va hokazo

4-4 ta fasl bor

5-bir qo’lda 5 ta barmoq bor

O’yin shartini fan, mavzu va sinfga qarab o’zgartirish mumkin. Bu o’yin o’quvchilarni tezkor fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu esa mantiqiy fikrlashda katta katta yordam beradi. Shu bilan birga o’quvchilarning soat, minutga doir bilimlarini mustahkamlab boradi

Notalar bahsi

1-ko'inish

O'qituvchi bir nechta so'zni doskada yozib qo'yadi. O'quvchilar shu so'zlarda qatnashgan notalarini topishlari kerak.

Masalan: iste'dod, sinfdosh, farosat, fazilat, reja, musiqa, odob...



2-ko'inish

Sinf o'quvchilari 3-4 guruhga bo'linadi.


Guruhlarga notalar bo'lib beriladi, o'quvchilar shu notalar qatnashgan mavzuga mos so'zlar topib yozishlari kerak.





“Uzum pishdi, bog‘ga kir”o‘yini.



“Sirli vagonchalar” o‘yini



So‘z va rasm



So‘z va rasm

**Sanamay sakkiz
dema**

**Daraxt ildizi
bilan,inson do’sti
bilan**

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga doir topshiriqlar

- Alisher va Komilda jami 76 ta shirinlik bor. Alisher Komilga 19 ta shirinlik berdi. Agar Komil shirinliklarning 12 tasini yesa, Alisherning shirinliklar soni Komilning shirinliklar sonidan 3 marta ko‘p bo‘ladi. Dastlab Alisherda nechta shirinlik bo‘lgan?



O'qituvchi uchun "7 sifat" metodi



1-sifat



2-sifat



3-sifat



4-sifat



5-sifat



6-sifat



7-sifat

Maktabga xursandchilik bilan kirib boring, maktabdan yoqimli charchoq bilan chiqib keting.

Tabbasum qilishni unutmang!

Yodingizda tuting: e'tiborsiz shifokor bemorning badaniga shikast yetkazishi mumkin, e'tibosiz o'qituvchi esa - bolaning qalbiga.

Darsga kirishdan oldin hozir nima uchun bu yerda ekanligingizni va nima qilishingizni aniq biling

Eng oliy pedagogik muvaffaqiyat — o'quvchilar tabbasumi.

Oddiy faktni katta kashfiyat kabi taqdim eting.

O'zingizni mamlakatning eng qobiliyatli pedagogi va eng zo'r aktrisasi (aktyori) kabi tuting.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

Fayzulloyeva Dilrabo Rahmonovna
Tel: 93-450-27-57